

# YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ


# 2023

DAVRIYLIGI:  
2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF  
ETILGAN LOKOMOTIV POYEZD



George Stephenson.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ



IYUL  
№54

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
9-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-9**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-9**

**ТОШКЕНТ-2023**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 54-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 20 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ**

<b>1. Erdonov Mukhammadamin Erdon o'gli</b> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI IQTISODIY SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	7
<b>2. Axrorova Zarina Baxtiyorovna</b> O'ZBEKISTONDAGI SUV TAQCHILLIGI .....	9
<b>3. Xalmuratov Kuanish Polatovich, Ibragimov Anvar Muxtarovich</b> MINTAQADA ZAMONAVIY XIZMATLAR TURLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI .....	11
<b>4. Б.Б. Султонмуродов</b> РАЗВИТИЕ КРЕДИТОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ЗА СЧЁТ ПРИВЛЕЧЁННЫХ СРЕДСТВ БАНКА.....	13
<b>5. Б.Б. Султонмуродов</b> РЕАЛИЗАЦИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В СИСТЕМЕ АКБ «УЗ- ПРОМСТРОЙБАНК» .....	15
<b>6. О.Т.Курбанова</b> АКТУАЛЬНЫЕ ВИДЫ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ .....	17



## ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

### XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI IQTISODIY SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**Erdonov Mukhammadamin Erdon o'gli**

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti

“Real iqtisodiyot” kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

E-mail:erdonovmuhammad@gmail.com

Tel: +998 94 245 24 74

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarining xo'jalik yurituvchi sub'ektning imkoniyatlari yoki uning boshqaruvning bozor sharoitidagi salohiyati turli omillar bilan belgilanadi.

**Kalit so'zlar:** Korxonа, daromad, xarajat, foyda, samaradorlik, salohiyat potentsial, tarkib, tizimli, iqtisodiy-strategik, potentsial.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatiga ta'sir qiluvchi barcha omillar tashqi va ichkiga bo'linadi. Tashqi va ichki muhit omillari o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lib, u bir omilning boshqalarga ta'sir qilish darajasi sifatida belgilanadi. Xizmat ko'rsatish korxonalariga ta'sir qiluvchi barcha tashqi omillar bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi tashqi omillarga bo'linadi. Bevosita ta'sir qiluvchi tashqi omillar xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Bularga, xususan: - iste'molchilar; - bank va kredit tashkilotlari; - davlat va idoraviy organlari. Bilvosita ta'sirning tashqi omillari umumiy ma'noda quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan: tabiiy, iqtisodiy, siyosiy, fan va texnika hamda ijtimoiy omillar.

- tabiiy omillar - noqulay ob-havo sharoiti, tabiat hodisalari;

- iqtisodiy - ishlab chiqarish hajmining pasayishi, inflyatsiya darajasi, bank foizlarining nominal darajasi va pul massasi hajmi, aholi bandligi darajasi, tashqi savdo hajmi, qarzdorlarning bankrotligi;

- siyosiy - iqtisodiy huquq sohasidagi qonunchilikning nomukammalligi, eksport va import shartlarini tartibga soluvchi xalqaro vaziyat omillari;

- fan va texnikaning rivojlanish darajasi - eskirgan texnologiyalar, ishlab chiqarishga kapital qo'yilmalarning etarli emasligi va boshqalar;

- ijtimoiy omillar - davlatning munosabatlari, hayotiy qadriyatlar va an'alariga bog'liq.

Korxonaning tashqi omillarini o'zi boshqara olmaydi, lekin ularni xizmat ko'rsatish korxonalarining strategik rejalashtirishlarida hisobga olishi mumkin.

Ichki omillarga quyidagilar kiradi: - mulkiy va moliyaviy resurslarning holati; - o'z aylanma mablag'larining taqchilligini mavjudligi; - xizmatning haqiqiy tannarxini va sotish bahosini aniqlash mexanizmining nomukammalligi, shartnoma intizomining pastligi; - investitsiya siyosati; - ichki risklar.

Ichki omillar ta'sirining tabiati va kuchi ko'p jihatdan xizmat ko'rsatish korxonalarini rahbarlarining malakasi va professionalligiga, ularning ichki va tashqi muhitdagi o'zgarishlarni hisobga olish qobiliyatiga bog'liq. Iqtisodiy potentsialni baholash, qanday usullardan foydalanilmasin, ko'p jihatdan tashqi muhitga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish faqat boshqaruvda tashqi muhit sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Korxonа iqtisodiy salohiyatining tuzilishi o'zaro bog'liq bo'lgan potentsiallar bilan tavsiflanadi: innovatsion potentsial, ishlab chiqarish potentsiali, mehnat potentsiali, moliyaviy potentsial, boshqaruv uslubi, tashkiliy-boshqaruv shakli va boshqalar. Ularning har biri elementlarning kombinatsiyasi



bilan belgilanishi mumkin.

Innovatsion potensial deganda korxonaning boshqaruv uslubi, tashkiliy-boshqaruv shakli, marketing tadbirlarini samaradorligi, resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, shuningdek, texnologik rivojlanish darajasi va ilmiy tadqiqot va laboratoriya ishlari yutuqlarini faoliyat jarayonida foydalanishi mumkin bo'lgan tajribasi kabi elementlar tushuniladi.

Innovatsion potensialda korxonada iqtisodiyotining muvofaqiyatli ishlashi, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va berish bilan bog'liq faoliyat sohasini belgilaydigan axborot salohiyati juda muhimdir.

Innovatsion potensialning eng muhim qismi bu jamoada mavjud bo'lgan ilmiy va texnik bilimlarning yig'indisidir, chunki ularning asosida korxonada iqtisodiyoti tarkibida sezilarli sifat o'zgarishiga, iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining tezlashishiga erishish mumkin. Shu munosabat bilan ilmiy-texnik salohiyatning harakatlantiruvchi kuchi bilimlarni yaratadigan va chuqurlashtiradigan, ishlab chiqarish tajribasini tizimlashtiradigan va takomillashtiradigan, ishlab chiqarish sohasidagi zamonaviy ilmiy-texnik inqilob yutuqlarini yangi mehnat vositalari, mehnat ob'ektlari va iste'mol ob'ektlari shaklida amalga oshiradigan, shuningdek mavjudlaridan foydalanadigan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-texnik va ishlab chiqarishdagi bilimli hamda tajribali kadrlar deb hisoblanishi kerak.

Korxonalarining innovatsion potentsiali o'z-o'zini tartibga soluvchi jarayon bo'lib, uning maqsadi yangi raqobatbardosh mahsulotlarni yoki xizmatlarni sotishdan ko'proq foyda olishdir. Hozirgi vaqtda innovatsion siyosat muammolarini hal etishida davlat rolini kuchaytirish zarurdir. Innovatsion faoliyatning faollashuvi nafaqat ilmiy-texnikaviy bilimlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, tarqatilishi va qo'llanilishi bilan, balki kadrlarni tanlash, baholash, tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, samarali mehnat motivatsiyasini rag'batlantirish tizimini takomillashtirish bilan ham bog'liqdir.



## О‘ЗБЕКИСТОНДАГИ СУВ ТАҚЧИЛЛИГИ

**Axrorova Zarina Baxtiyorovna**  
Osiyo Xalqaro Universiteti magistri  
Telefon: +99891-419-22-08

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda tadqiqotlarga ko‘ra, yaqin 20 yil ichida O‘zbekistonda suvga bo‘lgan talab sezilarli oshadi va mavjud suv resurslari keskin kamayadi, bu esa joriy suv tanqisligini besh barobargacha oshiradi. Bu davrga borib O‘zbekiston suv tanqisligi bo‘yicha qizil hududlar qatoriga kiradi. Suvsizlikning ehtimoliy ssenariylari qanday bo‘ladi?

**Kalit so‘zlar:** Ob-havo o‘zgarishi, suv resurslari, suv tanqisligi, iqlim o‘zgarishi.

O‘zbekiston Respublikasida aholining tabiiy o‘sishi va suv iste‘moli ko‘payishi, iqlim o‘zgarishi natijasida anomal issiq ob-havo yangi me‘yorga aylanib borayotgani, qorli kunlar soni qisqarishi, shuningdek, suv resurslaridan irratsional foydalanish ortidan Markaziy Osiyoda jiddiy ekologik muammolar va suv tanqisligi yuzaga kelmoqda.

### **Suv taqchilligining mintaqaviy jihatlarini**

Markaziy Osiyo okean va dengizlardan olisda joylashgan, qurg‘oqchil hudud bo‘lgani sabab, bu yerda suv manbalari strategik ahamiyat kasb etadi. Mintaqa davlatlari suv resurslari nuqtayi nazaridan ikkiga ajratiladi. Qozog‘iston, Turkmaniston va O‘zbekiston kabi davlatlar «quyi oqim», Tojikiston va Qirg‘iziston esa «yuqori oqim» mamlakatlar sifatida ko‘riladi.

Ta‘minot jihatidan birinchi guruhdagi mamlakatlar ikkinchi guruhdagi mamlakatlarga bog‘langan. Xususan, O‘zbekistonda foydalanilayotgan jami suv resurslarining 20 foizi mamlakat ichkarisida, 80 foizi esa qo‘shni Tojikiston va Qirg‘iziston hududida shakllanadi. Nisbatan kambag‘al hisoblanadigan «yuqori oqim»dagi ushbu ikki davlat GES va suv omborlari qurish orqali ko‘proq elektr energiya ishlab chiqarish va uni eksport qilishdan manfaatdor, bu esa mintaqadagi boshqa mamlakatlarda qishloq xo‘jaligini suv bilan ta‘minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu jihat ko‘p yillar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi ziddiyat va kelishmovchilikning asosiy ildizi bo‘lib keldi, suv manbalari sabab mintaqada yuzaga kelgan vaziyatdan yirik davlatlar siyosiy ta‘sir ko‘rsatish quroli sifatida ham foydalandi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati tomonidan olib borilgan «suv diplomatiyasi» mintaqadagi transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishdagi keskinlikni sezilarli darajada yumshatgan bo‘lsa-da, hozirgi kunga qadar ham Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida xalqaro standartlarga asoslangan suvdan foydalanishning umumiy qoidalari ishlab chiqilmagan.

Suv tanqisligi kuchayib borishi sabab yuqori oqimdagi davlatlar va quyi oqimdagi davlatlar o‘rtasida quyidagi masalalarda muammoli vaziyatlar yuzaga kelish ehtimoli mavjud:

- transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan bir tomonlama va kelishilmagan holda boshqarishga intilishning kuchayishi;

- suvni tijoratlashtirish va unga tovar sifatida munosabatda bo‘lish kayfiyati ortishi;

iqlim o‘zgarishi natijasida ichki energetik ehtiyojlarni ta‘minlash uchun yuqori oqimdagi mamlakatlar tomonidan Amudaryo va Sirdaryoning asosiy transchegaraviy irmoqlarida yangi yirik gidroelektrik suv omborlari qurish istagi oshishi. Hozirda Qirg‘izistonda 85 foiz, Tojikistonda esa 91 foiz elektr energiyasi GESda ishlab chiqariladi. Suv manbalari qisqarishi ushbu mamlakatlarda elektr energiya taqchilligi oshishiga jiddiy ta‘sir o‘tkazadi. Taqqoslash uchun, gidroelektr stansiyalarning energetika ta‘minotidagi ulushi O‘zbekistonda 15 foizga, Qozog‘istonda esa 10 foizga yaqin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib transchegaraviy suvdan foydalanish masalasida barqaror va tomonlar uchun teng manfaatli yangi kelishuvga erishish, suvdan oqilona foydalanishda yagona strategik yondashuvga o‘tishni tezroq hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Iqlim o‘zgarishi**

Oxirgi yillarda Markaziy Osiyoda anomal issiq ob-havo yangi me‘yorga aylanib bormoqda va jazirama kunlar soni avvalgiga qaraganda ko‘paydi. Norvegiya xalqaro munosabatlar institutining iqlim o‘zgarishi va yashil energiya sohasi bo‘yicha tadqiqotchisi Roman Vakulchukning fikricha, Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishiga nisbatan eng zaif mintaqalardan biri hisoblanib, bu yerda o‘rtacha yillik harorat global o‘rtacha ko‘rsatkichdan tezroq ko‘tarilmoqda va mintaqa iqlim jihatidan Kuvayt yoki Saudiya Arabistoni kabi Yaqin Sharq mamlakatlariga tobora o‘xshash bo‘lib



bormoqda.

Havo harorati oshishi suv tanqisligini kuchaytiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Mintaqaning asosiy suv manbasi – qor va muzliklar, ammo ko‘p qismi qor hisobiga shakllanadi. Tog‘lar qishda yog‘gan qorlar evaziga yoz fasli uchun suv saqlash funksiyasini ham bajaradi. Qor ko‘rinishidagi yog‘ingarchilik miqdori qisqarib borishi muammoli vaziyatni yanada chigallashtirmoqda va suvni yoz fasli uchun saqlashda jiddiy muammolar yuzaga keltirmoqda. Buning oqibatida asriy muzliklarning qisqarish tendensiyasi davom etyapti.

### **O‘zbekistondagi suv tanqisligi**

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kuzatilayotgan suv taqchilligi ikki yo‘nalishda: birinchi navbatda, aholi ehtiyojlari uchun toza ichimlik suvi yetarli emasligi, shuningdek, qishloq xo‘jaligini suv resurslari bilan ta‘minlashda jiddiy muammolar yuzaga kelayotgani fonida yuz bermoqda.

Suv xo‘jaligi vazirligining Kun.uz‘ga ma‘lum qilishicha, o‘tgan asrning 80-yillarida O‘zbekistonning bir yillik suv iste‘moli 64 mlrd kub metr deb hisob-kitob qilingan. Shundan 20 foizi respublika ichkarisidagi daryo va soylarga, yer osti suv zaxiralariga, 80 foizi esa qo‘shni respublikalar hududida shakllanadigan transchegaraviy daryolardan olindigan suv miqdorlariga to‘g‘ri keladi. Respublikada foydalanilgan o‘rtacha yillik suv miqdori 2019 yilda – 53,9 mlrd kub metr, 2020 yilda – 51,2 mlrd kub metr, 2021 yilda – 43,2 mlrd kub metrni tashkil qilgan.

Sodda qilib aytganda, aslida suv tanqisligi sabab O‘zbekiston foydalanayotgan suv miqdori hatto o‘tgan asrning 80-yillarida hisoblangan respublika bo‘yicha suvga ehtiyojning 75-80 foiziga ham yetmaydi. Holbuki, o‘tgan davrda aholi soni qariyb ikki baravarga o‘sdi, sanoat rivojlandi va umumiy ehtiyojlar yanada ko‘paydi. Xuddi shunday holat qo‘shni davlatlarda ham kuzatilgani inobatga olinsa, hozirgi sharoitda mintaqada suv manbalaridan foydalanish nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

O‘zbekistonda 4,3 mln gektar (Markaziy Osiyodagi jami sug‘oriladigan yer maydoni 7,9 mln gektar, bunda O‘zbekistonning ulushi qariyb 55 foiz) sug‘oriladigan ekin maydonlari mavjud. Mamlakatdagi suv resurslarining 90 foizi qishloq xo‘jaligi sohasida ishlatiladi. Shu jihatdan suv resurslari kamayishi mintaqadagi boshqa davlatlarga nisbatan ham O‘zbekiston uchun ko‘proq salbiy oqibatlar bilan xarakterlanadi. Suv tanqisligi qishloq xo‘jaligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, turmush darajasi yomonlashuvi, eksport kamayishi, inflatsiya oshishi, oziq-ovqat mahsulotlari narxi qimmatlashishi va bandlikni ta‘minlashda jiddiy muammolar keltirib chiqaradi.

O‘z navbatida, iqlim o‘zgarishi va suv resurslaridan irratsional foydalanish oqibatida mintaqadagi asosiy suv manbalari bo‘lgan muzliklar erishi tezlashgan. Suv tanqisligi o‘tkir va yaqin kelajakda hayot-mamot darajasiga ko‘tarilishi ehtimoli yuqori bo‘lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari umumiy ekotizimni saqlab qolish va ehtimoliy iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish uchun bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirishi hamda o‘z strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING 2020-2023-YILLARGA MO‘LJALLANGAN STRATEGIYASINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA.

2.Kun.uz

3.Счётчик население земле

4.Lex.Uz



## MINTAQADA ZAMONAVIY XIZMATLAR TURLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

**Xalmuratov Kuanish Polatovich**

Qaroqalpoq davlat universiteti dotsenti

Телефон: +998972200403

quanishxalmuratov2@mail.com

**Ibragimov Anvar Muxtarovich**

Qaroqalpoq davlat universiteti talabasi

Телефон: +998905755524

vigan2002x@gmail.com

**Аннотација.** Ushbu maqolada mintaqada zamonaviy xizmatlar turlarining rivojlanish xususiyatlari xususida suz yuritiladi.

**Калит сузлар:** mintaqa, ochiq iqtisodiyot, investiciya, innovaciya, infratuzilma, xizmatlar sohasi.

Mamlakat va mintaqada xizmatlar iqtisodiyoti rivojida innovacion xizmatlarning urni boshqa iqtisodiy omillar ichida eng ustuvorlaridan hisoblanadi. Mintaqada kursatilayotgan xizmatlar turlarini kupaytirish, amalga oshirish mexanizmini modernizatsiyalash soha rivojiga va samaradorligining oshishiga olib keladi. Zamonaviy xizmatlar xalqaro savdosini rivojlantirish eng muhim yunalishlardan bulib, ularni ushbu xizmatlar kursatilishida bevosita-bilvosita ishtirok etuvchi subyektlar bajaradilar. Xizmatlarni xalqaro bozorlarga taklif qilishda har bitta mamlakat, millat yoki alohida guruhlarining imkoniyatlari chuqur tahlil qilinishi va shunga mos xizmatlarni etkazib berish bu bozor ishtirokchilariga aylanishning ishonchli, kafolatli yulidir. Ushbu jarayonning qanchalik sifatli ega, har bir kursatilayotgan xizmatlarning har bir turini istemolchilariga etkazib berishning har bir bosqichida ishtirok qiluvchi subyektlar samarali faoliyati bilan bevosita bogliq buladi. Xizmat kursatuvchi subyektlarning istemolchilarga uzlari taklif qiladigan xizmatlarning qanchalik sifatli, raqobatbardoshligi hamda bozor talabiga muvofiqligi ushbu xizmat turlarining qay darajada zamonaviy uslublarga asoslanishiga, ilg'or texnologiyalardan foydalanilishiga, yuqori malakaga ega bulgan kadrlarga tayanishiga yoki umumlashtirib aytganda, subyektlarning innovacion faoliyati bilan baholanadi.

Tarmoqqa oid ushbu ustuvor vazifalarni etiborga olgan holda, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida”gi 2021 yil 11 maydagi PQ-5113-son Qarori qabul qilindi. Qarorda xizmat kursatuvchilar faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida 2021-2023 yillarda xizmatlar sohasi rivojiga tusiqlik bulayotgan byurokratik muammolarni hal etish, xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirish, ayniqsa, chekka hududlarda transport, moliyaviy, bank, turizm hamda boshqa xizmatlar qamrovini kengaytirish, respublikaning har bir chekka hududlarida talim va sogliqni saqlash bilan bogliq xizmatlar sifatini yaxshilash va xizmatlar sohasiga xususiy sektorni jalb qilish bilan bogliq qulay iqtisodiy va infratuzilmaviy sharoitlarni yaratish lozimligi belgilab berilgan [1].

Avstriyalik iqtisodchi olim P. Druker innovatsiyalar kuchli istak yoki omad orqali emas, balki har qanday iqtisodiy faoliyatni olib borishda yangi texnologiyalarga tayanishi kerakligini ta'kidlaganligi innovacion xizmatlar sohasiga ham bevosita tegishlidir.

AQSHlik olim Kennet Kan esa innovatsiyani uch xil tushuncha bilan, yani, innovatsiya-bu natija, innovatsiya-bu jarayon va innovatsiya-bu fikr, deb ajratadi [2].

Yuqoridagi olimlarning innovatsiyaga bergan izohlaridan kelib chiqib, innovatsiya bu-chuqur izchil izlanishlar jarayoni bulib hisoblanadi va ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq qilish orqaligina innovatsiyaga erishish mumkinligini tugrisida haqli xulosa qilamiz.

Iqtisodiy faol bulmagan, aholi ixtiyorida bush turgan mablag etarlicha topiladi. Lekin barcha aholi qatlami vakillari ham pulni qanday ishlatish, undan kuproq iqtisodiy samara olib kelishi buyicha aniq bilim va kunikmaga ega emaslar. Bunday aholi qatlami uchun innovacion bulgan “Start up assistantse” xizmati ularning yangi biznes goyalariga asoslangan yangi xizmat turlarining yulga quyilishini jadallashtiradi. Fikrimizcha, yuqoridagi umumlashgan tasnif chuqurlashtirilgan variantining ishlab chiqilishi va amalda qullanilishi viloyatda yaratiladigan xizmatlarning ilmiy-uslubiy salohiyati kutarilishiga va amaliy jihatlari asosli bulishiga olib keladi.

Dasturlash xizmatlarini kundan-kunga barcha sohalar avtomatlashayotgan va dastur



mahsulotlariga talab keskin ortib borayotgan paytda eng samarali innovacion xizmat turlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu yunalish rivoji uchun hali unchalik yaxshi infratuzilmaga ega bulmasakda, aholi ayniqsa yoshlar orasida ilm salohiyati yuqori qatlamning nisbatan kupligi shu erning uzida faoliyat kursatib, ancha yuqori haq tulanadigan rivojlangan xorijiy bozorlarga eksportini keskin oshirish imkoni mavjud. Amerikalik iqtisodchi olim Mixail Ingman axborot texnologiyalari bilan bogliq xizmatlarning rivojlanayotgan mamlakatlar uchun foydali jihatlarining shakllanishida inson kapitali kuchli rol uynashini, lekin jismoniy kapital kup talab qilinmasligi, xorij bilan masofadan ishlash mumkinligi, xizmatga talabning mamlakat tashqarisidan ham katta bulishi mumkinligi, ushbu xizmat xalqaro bozorining tez suratlarda usayotganligi bilan izohlaydi [3].

Kupchilik rivojlangan mamlakatlarda samarali yulga quyilgan, har bitta sohaga kirib borayotgan va mutaxassislar tomonidan yuqori istiqbolga ega bulgan dasturlash xizmatlarini rivojlantirish mintaqamiz iqtisodi uchun katta ahamiyatga ega. 2018 yilda AQSHning dasturiy taminot sohasida bevosita 3 million va bilvosita 14 milliondan ortiq kishilar faoliyat olib borishgan. Shuningdek, soha tugridan-tugri YAIMGa 845 milliard dollar qushimcha qiymat qushganligi va ilmiy-tadqiqot ishlariga deyarli 83 milliard dollar sarmoya kiritganligi sohaning jadal rivojlanayotganligini bildiradi.

Ayniqsa, innovacion taъlim hamda dasturlash xizmatlarini batafsil tadqiq qilish ushbu xizmatlarning muhim tarkibiy qismi bulib, uta dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dasturlash xizmatlarini rivojlantirish mintaqada ishsizlikni bartaraf qilish, ichki talabni qondirish, xorij bozorlariga eksport qilish va eng asosiysi, raqamli iqtisodiyotni jadal shakllantirishda juda katta tasirga ega. Ilgari “tjoratlashtirishga yaroqsiz”, deb hisoblangan kuplab xizmatlar turlari hozirgi kunda axborot texnologiyalari va telekommunikaciya sanoatining rivojlanishi tufayli uzoq masofalarga va qisqa vaqt ichida jahonning turli bozorlariga etkizib berilmoqda. Boshqa tomondan, axborot-kommunikaciya texnologiyalaridagi taraqqiyot va rivojlanish ilgari istemolchi va provayderning bir joyda bulishini talab qiladigan xizmatlarni masofadan turib taqdim etishga imkon berdi. Zamonaviy iqtisodiyotning usishi intellektual xizmatlar bilan bogliq. Dasturiy taminot kabi intellektual xizmatlar esa hozirdan innovacion xizmatning negizini tashkil etib, istiqbolda yanada tez suratlarda usadi. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “Uzbekistonning yangi taraqqiyot davrida talim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida”gi Farmoni yangi Uzbekistonning qisqa davrda hukumatimiz tomonidan talim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yunalishlari qatorida talim oluvchilar urtasida IT-sohasidagi zamonaviy kasblarni ommalashtirish chora-tadbirini amalga oshirishga va soha taraqqiyotini jadallashtirishga yunaltirilganligi alohida etiborga molik.

